

BO'LAJAK TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINI KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM JIHATLARI

Savurova Shahrizoda Abdumalik qizi

*A.Qodiriy nomidagi JDPU, Texnologik ta'lim mutaxassisligi 2-bosqich
magistranti, Jizzax sh. O'zbekiston.*

e-mail: savurova3633@jspi.uz,

Ilmiy rahbar: i.f.n. dots.R.T. Umarov

***Annotatsiya:** Ushbu ilmiy uslubiy ishda bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda kasbiy kompetentligini takomillashtirishning ayrim jihatlari qarab chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** Texnologiya, kasbiy layoqat, professionalizm, kasbiy mahorat, kompetentlik, ta'lim, tarbiya, pedagogika.*

***Аннотация:** В данной научно-методической работе были рассмотрены некоторые случаи повышения профессиональной компетентности при подготовке будущих учителей технологического образования.*

***Ключевые слова:** Технология, профессиональные способности, профессионализм, профессиональное мастерство, компетентность, образование, обучение, педагогика.*

***Annotation:** In this scientific methodological work, some cases of improving the professional competence in the preparation of future technology education teachers were considered.*

***Keywords:** Technology, professional ability, professionalism, professional skill, competence, education, training, pedagogy.*

Mamlakatni rivojlantirishning uzoq muddatli senariylarini hisobga olgan holda innovatsiyalarni ishlab chiqish hamda davlat va jamiyat qurilishiga joriy etish, shuningdek, jamiyat va davlat taraqqiyotini ta'minlovchi ilmiy tadqiqotlar va ilg'or texnologiyalarning ustuvor va istiqbolli yo'nalishlarini rivojlantirishga

zarurat mavjud. Hozirgi vaqtda agrar soha mutaxassislarini tayyorlashda ta'limning zamonaviy texnologiyalarini izchil joriy etish hayotiy zarurat bo'lib qolmoqda.

Pedagogning kasbiy layoqatliligini tarbiyalash muammosini o'rganish ishiga bir qator ilmiy ishlar bag'ishlangan. Biroq bu muammoning turli jihatlari va aspektlariga olimlarning qiziqishlari kamaymayapti, bu esa uzluksiz pedagogik ta'lim tizimini modernizatsiyalash va rivojlantirishning hozirgi zamon bosqichida alohida ahamiyatga egaligi va dolzarbligidan dalolat beradi.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish – bu talabanning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyati hamda imkoniyatlarini inobatga oluvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalaridan talaba shaxsini rivojlantirishda samarali foydalanishga qaratilgan jarayondir. Shu bois o'qitishni differentsiallashtirish va individuallashtirish shaxsga yo'naltirilgan ta'limni joriy etishning asosiy tamoyillari sifatida xizmat qiladi.

Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimini rivojlantirishning yo'nalishi – bu insonning turli sohalarda maqsadli mustaqil faoliyati asosida uning intellektual va axloqiy rivojlanishidir. Jahonning rivojlangan davlatlari qatori mamlakatimizda ham ta'limdagi islohotlar jarayonida kasb mahorati va kasbiy layoqatini tarbiyalash muhim yo'nalish sifatida qaralmoqda. Pedagogning kasbiy layoqatliligini tarbiyalash fenomenini tadqiq qilishga R.A.Mavlonova, N.N.Azizxodjaeva, F.Yuzlikaev, R.X.Djuraev, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzg'mina, V.A.Slastenin va boshqa qator olimlarning ishlari pedagogik kompetentlikka¹ bag'ishlangan. Bu mualliflar kasbiy layoqatlilik shaxsiyatli-ishonchlilik sifatleri bilan birlikda o'qituvchining kasbiy- shaxsiyatli hodisa sifatida pedagogik madaniyatini tavsiflaydi degan fikrda yakdildirlar. O'z navbatida, kasbiy layoqatlilik tushunchasi, V.A.Slastenin tahkidlaganidek, pedagogning pedagogik faoliyatni amalga oshirishga nazariy hamda amaliy tayyorligining birligini ifodalaydi va uning kasb mahoratini tavsiflaydi. Tadqiqot muammosi bo'yicha psixologik, pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, «kasbiy layoqatlilik» va

¹ Компетентлик – lot.comptens – тегишли, лаёқатли. Олий таълим, луғат маълумотнома. Академик

«kompetentlik» tushunchalari sinonimlar sifatida qaraladi. Biroq ularning mohiyatini aniqlashda farqlar bor. Mazkur tadqiqotda bu farqlar muhimdir, chunki uning tadqiqot mavzusi pedagogik mahoratning ma'lum darajasiga ega bo'lgan mutaxassisning layoqatliligini emas, balki bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining oliy ta'lim muassasasida kasbiy layoqatliligini shakllantirishga yordam beradigan psixolog-pedagogik muammolariga qaratilgan.

Shuni qayd etish kerakki, hozirgi vaqtda «professionalizm» atamasi psixolog-pedagogik tadqiqotlarda bir qiymatli tadqiq etilmaydi. Uning asosiy xarakteristikalarini pedagog (o'qituvchi)ning faoliyatiga nisbatan M.Ochilov, S.Nishonova, U.Mahkamov, M.Quronov, J.Yo'ldoshev, N.V.Kuzmina, A.K.Markova, M.I.Maxmutov, V.Ya.Sidorenko, V.A.Slastenin va qator boshqa mualliflarning asarlarida asoslanadi.

U holda pedagogik faoliyat professionalizmi, N.V.Kuzmina fikricha, «ilmiy-tadqiqot elementlarini nazorat, uning mahsuldorligi o'lchovini nazorat maqsadlarida kiritishdir» deganida tushunarli bo'ladi. Bunda mahsuldorlik pedagogik vazifalarni hal qilish bilan bog'langan o'quv- tarbiya jarayoniga ajratilgan vaqt ichida barcha yoki asosiy ko'pchilik o'quvchilarga nisbatan izlanayotgan oxirgi natijaga erishilishini ta'minlaydigan pedagogik maqsadga muvofiq amallar tizimi sifatida tavsiflanadi.

Bu fundamental bilimlar, uquvlar, qobiliyatlar, anglangan ijtimoiy-shaxsiyatli pozitsiyalar va qoidalar, kasbga yo'naltirilganlik, shaxsning ma'naviy sifatlari sintezi hisobiga subhektiv-ijtimoiy rollarni bajarish ta'minlanadi, bu esa aynan pedagogning professionalizmini tavsiflaydi.

SHunday qilib, professionalizm «kasbiy mahoratni egallash, uni samarali professional bajarishni» anglatadi .

Bunda, V.A.Slastenin qayd etganidek, pedagogning pedagogik faoliyat subyekti sifatidagi, ya'ni uning professionalizmining sifat xarakteristikasi, kasbiy layoqatliligining yuqori darajasi va pedagogik vazifalarni samarali hal etish shaxsning kasbiy mahoratga tayyorligidan iborat.

«Professionalizm» va «kasbiy layoqatlilik» tushunchalari munosabatini ko'rgazmali qilib bunday tasvirlash mumkin.



1.1-rasm. «Professionalizm» va «kasbiy layoqatlilik» tushunchalarining o'zaro munosabati.

Xulosa qilib aytganimizda, bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini takomillashtirish, bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish yangi metodlardan innovatsion texnologiyalardan hamda interfaol metodlardan foydalanish ko'nikmalarni tubdan yaxshilash bugungi kunda juda dolzarb masala hisoblanadi. Biz Texnologiya ta'limi o'qituvchilari bunga befarq bo'lmasligimiz lozimdir. Yosh avlodni shakllantirishda kasbiy bilim, kasbiy layoqat va kasbiy mahoratni oshirishning yangi yo'llarini qidirib topishimiz kerak deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Олий таълим, луғат маълумотнома. Академик С.С.Фуломов тахрири остида. Тошкент, «Молия», 2003 йил. 144 бет
2. <https://lex.uz/docs/-5013007>.
3. <https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan/7998>